



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025

O‘QITUVCHI NUTQ MADANIYATI: TA‘SIRCHANLIK VA
PEDAGOGIK NUTQ XUSUSIYATLARI

Denov tadbirkorlik va pedagogika

Instituti filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

Mamatmurodova Ruhshona Hayitmurod qizi

Shoynazarova Maftuna Anvar qizi

Email gobilovhayitmurod@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada o‘qituvchi nutq madaniyati, uning ta‘lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni va ahamiyati yoritiladi. O‘qituvchi nutq madaniyati: to‘g‘riligi, aniqligi va ta‘sirchanligi o‘quvchi va talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishi hamda tushunish darajasiga katta ta‘sir ko‘rsatishi ta‘kidlanadi. Shuningdek, pedagogik nutqning asosiy xususiyatlari- mantiqiylik, ravonlik, madaniylilik va emotionally kabi jihatlar tahlil etilgan. Maqolada o‘qituvchi nutqini rivojlantirish va uni ta‘sirchan qilishning samarali yo‘llari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Abstract: This article explores the speech culture of teachers and its role and significance in the educational process. It emphasizes that the correctness, clarity, and expressiveness of a teacher’s speech greatly influence students’ interest in the lesson as well as their level of comprehension. The main features of pedagogical speech—such as logicality, fluency, politeness, and emotionality—are also analyzed. The article presents insights into effective ways to develop and enhance the expressiveness of teachers’ speech.

Аннотация: В данной статье рассматривается речевая культура учителя, а также её роль и значение в процессе обучения и воспитания. Подчёркивается, что правильность, ясность и выразительность речи учителя существенно влияют на интерес учащихся к уроку и уровень их понимания. Проанализированы основные особенности педагогической речи —



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025

логичность, плавность, культурность и эмоциональность. В статье также изложены мнения о эффективных способах развития речи учителя и повышения её выразительности.

Kalit so‘zlar. Nutq madaniyati, o‘qituvchi nutqi, ta'sirchanlik, pedagogik muloqot, madaniy so‘zlash.

Key words. Speech culture, Teacher's speech, Expressiveness, Pedagogical communication, Cultured speech

Ключевые слова. Культура речи, Речь учителя, Выразительность, Педагогическое общение, Культурная речь.

Kirish. Ta'lim jarayonida o‘qituvchining nutqi muhim o‘rin tutadi. Chunki o‘qituvchi bilim, tarbiya va ma'naviy qadriyatlarni, eng avvalo, o‘z nutqi orqali o‘quvchilarga yetkazadi. Shuning uchun ham o‘qituvchi nutq madaniyati, uning ta'sirchanligi va pedagogik nutq xususiyatlari ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. O‘qituvchining nutqi nafaqat ma'lumot berish, balki o‘quvchilarni ruhlantirish, ularda fikrlash, o‘rganishga qiziqish va ishonch uyg‘otish vositasi ham hisoblanadi. Shu bois, har bir pedagog o‘z nutq madaniyatini shakllantirish, uni ta'sirchan va tarbiyaviy ahamiyatga ega qilish ustida doimo ishlashi zarur. Ta'lim jarayonining samaradorligi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ulardan eng muhimlaridan biri o‘qituvchining nutq madaniyatidir. Nutq – o‘qituvchining asosiy ish quroli, ta'sir o‘tkazish vositasi va pedagogik faoliyatining markaziy unsuridir. O‘qituvchi nutq madaniyatining yuksakligi nafaqat bilim berish jarayonini osonlashtiradi, balki o‘quvchilar bilan sog‘lom muloqotni shakllantiradi, ularning til odobiga, fikrlash madaniyatiga ham ta'sir ko‘rsatadi. O‘qituvchi nutq madaniyati – bu o‘qituvchining ilmiy, adabiy hamda pedagogik me'yorlarga mos,



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025**

ravon, mantiqiy izchil, ta'sirchan va tarbiyaviy ahamiyatga ega nutqni shakllantirib, uni ta'lim jarayonida samarali qo'llay bilish mahoratidir. Bu tushuncha nafaqat to'g'ri so'zlashni, balki kommunikativ kompetensiya, pedagogik etika va psixologik muomala madaniyatini ham o'z ichiga oladi. O'qituvchi doimiy ravishda to'g'ri talaffuz, adabiy grammatik me'yorlar, so'z boyligining to'g'ri qo'llanishi kabi unsurlarga amal qilishi zarur. Bu o'quvchilar ongida toza va sof til namunasini shakllantiradi. O'qituvchi nutq madaniyati – ta'lim sifatini oshirishning asosiy mezonlaridan biridir. Nutqi boy, ifodali, adabiy me'yorlarga mos o'qituvchi — o'quvchilarning nafaqat bilim manbai, balki axloqiy va madaniy ibratidir. Shuning uchun har bir pedagog nutq ustida muntazam ishlashi, o'z muloqot madaniyatini takomillashtirib beruvchi omildir. Ta'sirchanlik – bu o'qituvchi so'zining tinglovchilarga, ya'ni o'quvchi va talabalarga ruhiy, aqliy va hissiy ta'sir ko'rsatish qobiliyati. Ta'sirchan nutq darsning samaradorligini oshiradi, o'quvchilarni diqqatini jalb qiladi va mavzuni chuqurroq tushunishga yordam beradi. O'qituvchi nutq madaniyati- bu o'qituvchining o'z fikrini to'g'ri, aniq, mantiqan izchil va ifodali tarzda yetkaza olish mahoratidir. Nutq madaniyati o'qituvchining kasbiy qiyofasini belgilovchi muhim me'zonlardan biri sanaladi. O'qituvchi nutqi adabiy til me'yorlariga mos bo'lishi, talaffuz, grammatik va uslubiy jihatdan to'g'ri tuzilishi zarur. Shuningdek, nutq boy, mazmunli va o'quvchining yoshiga mos bo'lishi kerak. Nutqi boy, madaniyatli o'qituvchi o'quvchilarda ona tiliga hurmat, to'g'ri va chiroyli so'zlash ko'nikmasini shakllantiradi.

O'qituvchi nutqining ta'sirchanligi- bu tinglovchida ma'lum bir hissiy holat, qiziqish va harakatga undovchi nutqdir. O'qituvchining ta'sirchan nutqi o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqish, ishonch va ijobiy munosabatni uyg'otdi. Pedagogik faoliyat o'zining mohiyatiga ko'ra kommunikativ jarayondir. Bu jarayonning markazida o'qituvchi turadi va uning nutqi ta'lim sifatiga,



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025**

o‘quvchilarning bilimni qabul qilishiga, darsning emotsional muhiti hamda tarbiyaviy samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

O‘qituvchi nutqining ta’sirchanligi, mantiqiyliqi, ravonligi va pedagogik etika talablari asosida shakllanishi zamonaviy ta’lim tizimining asosiy kompetensiyalaridan biridir. Shu sababli pedagogik nutqning xususiyatlari va ta’sirchanlik omillari chuqur o‘rganilishi zarur. Pedagogik nutq – o‘qituvchining ta’lim va tarbiya jarayonida foydalanadigan, ilmiylik, mantiqiylik, ta’sirchanlik, aniq maqsadlilik va axloqiy me’yorlarga mos bo‘lgan nutqidir. Bu nutq faqat axborot berish vositasi emas, balki o‘quvchi shaxsiga ta’sir o‘tkazish, uni rag‘batlantirish, fikrlashga undash va tarbiyalashning muhim qurolidir. Ta’sirchanlik– bu o‘qituvchining nutqi orqali o‘quvchilarga ruhiy, emotsional va intellektual ta’sir ko‘rsatish qobiliyatidir. Ta’sirchan nutq o‘quvchilarning e’tiborini jalb qiladi, darsning mazmunini tushunarli qiladi, o‘quvchilarda qiziqish va motivatsiyani oshiradi.

Pedagogik nutq xususiyatlariga aniqlilik, mantiqiylik, ravonlik, ta'sirchanlik va madaniylilik kiradi. Har bir o‘qituvchi o‘z nutqini shular asosida shakllantirishi kerak. Pedagogik nutq — bu o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi ta’lim-tarbiya jarayonida ishlatiladigan nutq bo‘lib, uning samarali bo‘lishi uchun quyidagi xususiyatlar muhim hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchi nutqi madaniyati- bu ta'lim va tarbiya samaradorligini belgilovchi asosiy omildir. Ta'sirchan, madaniyatli va to‘g‘ri nutqqa ega o‘qituvchi o‘quvchilarga nafaqat bilim, balki motivatsiya va ishonch ham beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayev A., Usmonov S. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019.



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025**

2. Amonov U. O‘qituvchi nutqining ijtimoiy-psixologik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014.
3. G‘ulomov A., Yo‘ldoshev Q. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2017.
4. Mavlonova R., Ashurova D., Qurbonov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2018.
5. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch.- Toshkent, 2008
6. Xudoyberdiyeva M. Pedagogik muloqot va nutq madaniyati.- Toshkent, 2020.